INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Amaliy san’at asarlari namoyishida zamonaviy texnologiyalar

Sultanova Gulchexra Ozodovna
sultonovagulchehra5@gmail.com
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, o‘qituvchi, san’atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada muzeylarda amaliy san’at asarlarini zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etishning dolzarb masalalari yoritilgan. Multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik, interaktiv ekspozitsiyalar hamda 3D modellashtirish usullarining muzey faoliyatidagi ahamiyati tahlil qiligan. Shuningdek, milliy amaliy san’at namunalarini targ‘ib qilish va yosh avlodga yetkazishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni ilmiy asosda ochib berilgan.Ushbu maqolada ko‘pgina muzeylar jahonning bir qator rivojlangan davlatlari muzeylari tajribasiga tayangan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, amaliy san’at asarlarini saqlash va namoyish qilishda yangicha yondashuvlar ishlab chiqayotganligi, shuningdek, “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasining bu boradagi amaliy ishlari borasida to‘xtalib o‘tilgan. Moddiy-madaniy merosni innovatsion usullar yordamida namoyish qilish yurtimiz tarixi, madaniyati va san’atini keng targ‘ib qilishda ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: muzey, amaliy san’at, zamonaviy texnologiyalar, madaniy meros, ekspozitsiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы представления произведений прикладного искусства в музеях с использованием современных технологий. Анализируется важность мультимедийных инструментов, цифровых технологий, виртуальной и дополненной реальности, интерактивных экспозиций и методов 3D-моделирования в музейной деятельности. Также научно раскрывается роль инновационных технологий в популяризации и передаче национальных образцов прикладного искусства молодому поколению. В статье подчеркивается тот факт, что многие музеи, опираясь на опыт музеев ряда развитых стран, разрабатывают новые подходы к сохранению и представлению произведений прикладного искусства с использованием современных технологий, а также рассматривается практическая работа Государственного музея-заповедника Ичан-Кала в этом отношении. Приводится информация о важности представления материального и культурного наследия с использованием инновационных методов для широкого популяризации истории, культуры и искусства нашей страны.

Ключевые слова: музей, прикладное искусство, современные технологии, культурное наследие, экспозиции.

Abstract. This article examines current issues related to the presentation of applied art in museums using modern technologies. It analyzes the importance of multimedia tools, digital technologies, virtual and augmented reality, interactive exhibits, and 3D modeling methods in museum activities. It also explores the role of innovative technologies in popularizing and transmitting national examples of applied art to younger generations. The article emphasizes that many museums, drawing on the experience of museums in a number of developed countries, are developing new approaches to preserving and presenting works of applied art using modern technologies. It also examines the practical work of the Ichan-Kala State Museum-Reserve in this regard. It also highlights the importance of presenting material and cultural heritage using innovative methods for the widespread popularization of the history, culture, and art of our country.

Keywords: museum, applied art, modern technologies, cultural heritage, exhibits.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi muzey faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy muzey ekspozitsiyalari asta-sekin raqamli va interaktiv shakllar bilan boyitilmoqda. Ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlarning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san’atiga oid amaliy san’at asarlarini namoyish etishda multimedia vositalari, virtual texnologiyalar va interaktiv tizimlardan foydalanish tomoshabinlarning qiziqishini oshirish bilan birga, eksponatlarning estetik hamda tarixiy qiymatini chuqurroq anglash imkonini bermoqda.

Muzeylar nafaqat tarixiy buyumlarni saqlovchi maskan, balki ma’naviy-ma’rifiy tarbiya markazi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli muzey ekspozitsiyalarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bugungi davr talabiga aylangan. Ayniqsa, o‘zbek xalq amaliy san’ati namunalarini innovatsion usullarda namoyish etish milliy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishda muhim vosita hisoblanadi. Kulolchilik, zargarlik, kashtachilik va zardo‘zlik, yog‘och, ganchkorlik o‘ymakorligi kabi san’at turlarini raqamli texnologiyalar asosida taqdim etish tomoshabinda kuchli estetik taassurot uyg‘otadi. Shu jihatdan muzeylarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bugungi san’atshunoslik va muzeyshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Respublikamizda muzeylar tarixi, muzey ekspozitsiyalari, muzeylarida zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etishga oid adabiyotlar mavjud. Jumladan, D. Kuryazovaning “O‘zbekistonda muzey ishi tarixi” asari O‘zbekiston muzeylaring yaratilish tarixi, faoliyati, taraqqiyoti, O‘zbekiston muzeylarining mustaqillik davridagi rivoji, muzeyshunoslikning dolzarb masalalari, muzey pedagogikasi, marketing va menejmentini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu muallifning “Muzey ishi asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida O‘zbekistonda muzey ishining shakillanishi va rivojlanish, muzey sharoitida fond ishi, ekspozitsion va madaniy ta’lim masalalari ko‘rib chiqilgan. D. Bobojonovning “Ичан қалъа” давлат музей қўриқхонаси тарихи ”monografiyasida “Xiva muzeyining 100 yillik tarixi (1920-2020-yy), tashkil qilinishi, taraqqiyoti davomida erishgan yutuqlari, muzey ekspozitsiyalarining faoliyati, muzey-qo‘riqxona fondining boyitilishi, muzey-qo‘riqxonaning viloyat madaniy va iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni hamda kelajakdagi istiqbollari ochib berilgan. J.Ismoilova, M.Muhamedovaning “Zamonaviy jahon muzeyshunosligi” adabiyotida jahon muzeylarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llanilishi va ularning afzalliklari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Yuqoridagi adabiyotlarda amaliy san’at asarlarini muzey ekspozitsiyalarida zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etish borasida umumiy ma’lumotlar berilgan. Shu sababli, amaliy san’at asarlarini zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish qilish va ularning ahamiyati borasida kengroq to‘xtalib o’tmoqchimiz.

Zamonaviy texnologiyalar eksponatlarni yanada jozibador ko‘rsatish bilan birga, tomoshabinning muzey bilan faol muloqotini ta’minlaydi. Avvallari muzeylarda eksponatlar oddiy vitrina ichida joylashtirilib, qisqa tavsif bilan cheklanilgan bo‘lsa, bugungi kunda sensorli ekranlar, audio gidlar, videoproyeksiyalar va QR-kod tizimlari orqali eksponat haqida keng ma’lumot olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu usullar tomoshabinning san’at asari bilan interaktiv aloqasini kuchaytiradi. Muzey ekspozitsiyalarida multimedia vositalarining qo‘llanilishi eksponatlarning tarixiy va badiiy ahamiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Masalan, kulolchilik buyumining yaratilish jarayoni videoanimatsiya orqali namoyish etilishi tomoshabinning qiziqishini yanada oshiradi. Naqsh elementlari va ularning ramziy ma’nolari esa grafik animatsiyalar yordamida tushuntiriladi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar muzey fondidagi noyob eksponatlarni raqamlashtirish imkonini ham beradi. Bu esa ularni uzoq muddat saqlash va ilmiy tadqiqotlar uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, bugungi kunda ko‘pchilik muzeylar faoliyatida innovatsion texnologiyalar qo‘llanilib, san’at asarlarini raqamlashtirish orqali ularni onlayn platformalar orqali keng jamoatchilikka taqdim etish tendensiyasilari ham rivojlanmoqda. Ayniqsa, xorijiy davlatlar muzeylari madaniy merosni keng ommaga yetkazishda eksponatlarini raqamlashtirish, internet orqali keng ommaga taqdim etish, interaktiv texnologiyalar asosida sensorli ekranlar, QR-kodlar, audio gidlar orqali tashrif buyuruvchilarga eksponatlar haqida chuqurroq ma’lumot berish, muzeylarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini faol yuritish, xalqaro hamkorlik aloqalarini oshirishga e’tibor qaratmoqdalar.

XXI asr muzeylar uchun innovatsiyalar asri bo‘lganli sababli zamonaviy hayotda muzeylar an’anaviy vazifalar va funksiyalardan biroz chetga chiqib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga

ko‘mak beruvchi yanada keng dasturlarni amalga oshirishi lozim. Zamon o‘zgargan sayin shu bilan birga insonlarni ongi ham o‘zgarib bormoqda. Shu bois muzeylardagi eksponatlarga ham boshqacha nazar bilan qaraladigan bo‘ldi. Ma’lumki, muzeylarda ekskursovod yordamisiz sayyohlarning eksponatlar bilan tanishib chiqish oddiy tomoshabin uchun juda murakkab sanaladi. Ekspozitsiyani tomoshabinga to‘liq yetkazishda bir qator yangi innovatsion texnologiyalar hozirgi kunda muzey hayotidagi asosiy yangiliklardan biriga aylanib bormoqda. Turli axborot tizimlari va sensor kiosklaridan foydalanish muzeylar to‘g‘pisida ma’lumotlarni to‘g‘ri yetkazish sifat darajasini oshnrmoqda. Muzey va ko‘rgazmalarda virtual panorama va virtual ekspozitsiyalar yaratish imkonini beradi.Tomoshabin muzeyga tashrifi chog‘ida o‘zini qiziqtipgan eksponatning yaratilish tarxi, muallifi xususida ilmiy ma’lumotlar bilan tanishadi.Tomoshabin faqatgina ekskursiyani tinglabgina qolmay, eksponatni sinchiklab o‘rganishi ham mumkin. Sanat va tarix muzeylarida shu uslub qo‘llanilmoqda. Virtual texnologiya tomoshabinga muzey ekspozitsiyalari bilan sirtdan tanishish imkonini ham yaratadi. Bundan tashqari noan’anaviy shakldagi muzeylar faoliyati ham, doimo sayyohlar e’tiborini jalb etadi.[1]

Zamonaviy muzeylar ko‘pincha interaktiv elementlar, audio va vizual texnologiyalar orqali ekspozitsiyalarni boyitishga harakat qilmoqdalar. Bunda tashrifchilarni ko‘proq jalb etish imkonini beradi. Masalan, virtual reallik vositalari yordamida amaliy san’at asarlari yaratilishi jarayonini ko‘rsatish yoki ma’lum bir tarixiy hodisalarni qayta tiklash mumkin.

Zamonaviy muzeylar xizmat ko‘rsatishni yuqori darajaga olib chiqishda yangi texnologiyalarga murojat qilmoqdalar. Shu yo‘sinda “audiogid” vositasidan keng foydalanilmoqda. Audiogid o‘ziga ekspozitsiya haqidagi ma’lumotlarni qamrab olgan bo‘ladi. Audioguide ma’lumotlarni turli tillarda yetkazish imkoniyatiga egadir. Uni xohlagan vaqtda istalgan tilda eshitish mumkin[2]. Audiogidlar ko‘proq chet mamlakatlarda keng tarqalgan, hozirgi kunda audiogid imkoniyatlaridan O‘zbekistonda ham keng foydalanilmoqda. Audiogidlar yordamida tomoshabinlar eskursavod yordamisiz muzey zallari bo‘ylab eksponatlar haqidagi barcha ma’lumotlarni bilib olishlari mumkin. Mul’temediyali audiogid texnologiyasidan ayniqsa, muzey qo‘riqxonalarda keng qo‘llanilmoqda.

Muzeylarda ayniqsa, amaliy san’at asarlari ko‘rgazmalarini to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ekspozitsiya shunday tashkil qilinishi kerakki, tashrifchilar har bir asarning nafaqat estetik go‘zalligini, balki uning tarixi va qo‘llanilishini ham to‘g‘ri tushunishlari mumkin bo‘lsin. Ekspozitsiya masalalari muzeylardagi kolleksiyalarni namoyish etish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Muzeylardagi ekspozitsiyalarni to‘g‘ri tashkil qilish madaniy merosni ko‘rsatish, tashrifchilarni jalb etish va ularga ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazishda katta rol o‘ynaydi.

Muzey ekspozitsiyasidagi predmetlar ilmiy tashkil etilgan majmuani o‘zida namoyon etadi, chunki ularni tanlash va joylashtirish muzey jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi. Ekspozitsiya muzey kommunikatsiyasi asosini tashkil etadi, bu esa, o‘z navbatida, ma’lum bo‘shliqda joylashtirilgan ekspozitsion materiallarning tomoshabinlar tomonidan ko‘rish, qabul qilish yo‘li bilan amalga oshadi. Tomoshabinlarning eksponatlar bilan muloqoti jarayonini yengillashtirish maqsadida, uni yanada samarali va natijali qilish uchun ekspozitsiya yaratishda nafaqat olimlar, balki rassomlar ham qatnashadi[3].

Zamonaviy ekspozitsiyalarni yaratishda badiiy-ifodaviy vositalar majmuasini ishlatish, eksponatlarni namoyish etish uchun maxsus moslamalar, ya’ni ekspozitsion jihozlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kundagi ijtimoiy madaniy hayotda katta o‘zgarishlar yuz bermoqda, buning natijasida ekspozitsion ishlarga ham yangicha yondashishga talab ko‘chaymoqda. Bu esa muzeylarning oldiga o‘z ekspozitsiyalarini ifodali va taassurot qoldiradigan qilib yaratish vazifasini qo‘ymoqda. Ekspozitsiyalarni yaratishda eksponatlashtirilayotgan ashyolarni har tomonlama, chuqur o‘rganish shart. Tayyorlanish texnikasi, materiali, hajmi va boshqa belgilari bo‘yicha turlicha bo‘lgan predmetlar ekspozitsion namunada bir butun narsadek aks etishi kerak, ya’ni ko‘zlangan mavzuni ochib berishi

[1]Ismoilova J., Muhamedova M. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. – Toshkent: Munis design group, 2013. –.251-b
[2] Ismoilova J., Muhamedova M. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. – Toshkent: Munis design group, 2013. –.261-b
[3] Kuryazova D. T. Muzey ishi asoslari. – Toshkent: Lesson Press, 2019– B. 111–112.

lozim. Tarkibiga muzey predmetlari, ilmiy-yordamchi materiallar, me'moriy-badiiy va texnik vositalar kiritilgan majmua, yagona fikrga bo'ysundirilib, o'zaro bog'liq, mutanosib bo'lsa, zamonaviy ekspozitsiyaning eng yaxshi shakli hisoblanadi. San'at va texnika vositalarining har xil turlari qo'shilib, muzey ekspozitsiyasini loyihalashda yangicha tushuncha, ya'ni ekspozitsion va ko'rgazma dizayni vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy muzey ekspozitsiyalari qiyofasini tubdan ijobiy tomonga o'zgartiradi[4].

"Ichan-qal'a" muzey-qo'riqxonasida zamonaviy ekspozitsiyalarni tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, ayrim ekspozitsiyalar reekspozitsiya qilinmoqda hamda yangilari tashkil qilinmoqda. Jumladan, Muhammad Rahimxon madrasasida "Hukumdor va shoir" ekspozitsiyasi, Toshhovli saroyida esa "Milliy libosimiz – qadriyatimiz bezagi" ko'rgazmasini tashkil etildi.

Bugungi kunda amaliy san'at asrlarini innovatsion usullarda namoyish etish masalalari jahonning bir qator rivojlangan davlatlarning muzeylari tajribasiga tayanib amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning ko'pchilik muzeylari amaliy san'at asarlarini tematik ko'rgazmalar orqali namoyish qiladi. Muzeylarda ko'pincha amaliy san'at asarlarini muayyan hunarmandchilik an'analari, geografik mintaqalar yoki tarixiy davrlar bo'yicha to'plab taqdim etish amaliyoti mavjud. Ushbu usul tashrifchilarga turli madaniyat sohalrini shuningdek, amaliy san'atning rivojlanishini ko'rish va asarlarning foydalanish xususiyatlarini tushunish imkonini beradi. Jumladan, Metropoliten muzeyi (Nyu-York) o'zining amaliy san'at kolleksiyalarini turli mamlakatlar hunarmandchilik va amaliy san'at an'analari bo'yicha namoyish qiladi, bu orqali u tashrifchilarga san'atning boy tarixini ko'rsatadi.

Muzeylar ekspozitsiyadagi har bir buyumning ahamiyatini yoritish uchun turli xil yorug'lik texnologiyalari, shishali vitrinalar va maxsus qo'llanmalardan foydalanadi. Masalan, Luvr muzeyi (Fransiya) amaliy san'at buyumlarini yuksak estetik standartlar asosida namoyish qiladi. Bunday buyumlar maxsus shishali qo'riqlov vitrinalarida saqlanadi va zamonaviy muzey dizayni orqali ko'rsatib beriladi. Muzeylar ko'rgazmalar bilan birga tashrifchilarga amaliy san'atning ahamiyatini tushuntirish va hunarmandchilik, amaliy san'at an'analarini asrash bo'yicha turli seminarlar, interaktiv darslar hamda ekskursiyalar o'tkazadi. Bunda maxsus yo'naltirilgan ekskursiyalar, audiogidlar va virtual reallik texnologiyalari keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda zamonaviy, rivojlangan muzeylarda amaliy san'at asarlarini raqamlashtirish orqali ularni onlayn platformalar orqali keng jamoatchilikka taqdim etish tendentsiyasi rivojlanmoqda. Interaktiv virtual ko'rgazmalar va 3D modellashtirish texnologiyalari tashrifchilarga amaliy san'at asarlarini bevosita yoki masofadan ko'rish, o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Ko'pgina muzeylar zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, amaliy san'at asarlarini saqlash va namoyish qilishda yangicha yondashuvlar ishlab chiqmoqdalar, jumladan "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda muzey ekspozitsiyalarini yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilgan, jumladan "Zarbxona" intereri, "Allomalar tarixi muzeyi", "Hukumdor va shoir" ekspozitsiyasi shu asosda tashkil etilgan. "Dorul hikmat val maorif" yoki "Allomalar tarixi" ekspozitsiyasi 2020-yilda tashkil qilingan. Dorul hikmat val maorif muzey yartishdan asosiy maqsad, mashhur ilm fan markazlaridan biri Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatini o'ziga xos yangi zamonaviy shaklda ko'rsatib berishdir Mazkur muzey ekspozitsiyasida zamonaviy raqamli va kompyuter texnologiyalari asosida innovatsion g'oyalar hamda yechimlardan foydalanganlar. Bu yerda yangi texnologiyalar qo'llanilgan – buyuk olimlarning raqamlari 3D formatdagi maxsus qoplamadan yasalgan panelning ingichka to'r yuzasida paydo bo'ladi. Ularning tasvirlari mepping (xaritada tasvirlash texnikasi)da vizual rasmlar bilan birga keltirilgan. Asosiy zalning perimetri bo'ylab kichik hujralar - xonalar joylashgan bo'lib, ularning har biri buyuk olimlar – Ma'mun akademiyasi a'zolari faoliyatini aks ettiradi."Oq masjidlik mennonitlar" muzeyi butunlay smart-muzey loyihasi bo'yicha ishlangan bo'lib, undagi har bir ko'rgazma o'zi haqida 3 tilda videoaudio axborot beradi. Ushbu qo'shilgan reallikka asoslangan texnologiya qisman "Madrasa

[4] Kuryazova D. T. Muzey ishi asoslari... – B. 116–117.

tarixi” ekspozitsiyasida hamda “Zarbxona” intererida ham qo‘llanilgan. Muzeydagi ayrim tarixiy shaxslar portretlari – jonli tarzda o‘zlari haqida hikoya qiladi.

Muzey faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash borasida 6 ta yo‘nalishda (aqlli axborot tablichkalari, smart otkritkalar to‘plami, smart muzey, jonli katolog, interaktiv xarita, virtual muzey, shaharni 3D ko‘rinishi) ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

“Ichan-qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasini jozibadorligini oshirish va keng targ‘ib qilish maqsadida khiva360.uz saytida virtual muzey loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu tizim orqali dunyoning istalgan joyidan turib, muzey-qo‘riqxona va undagi muzeylar bo‘ylab virtual sayohat qilish imkoniyati mavjud[5].

Zamonaviy muzeylar nafaqat eksponatlarni namoyish etadi, balki ta’limiy vazifani ham bajaradi. Interaktiv texnologiyalar esa ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Masalan, o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan interaktiv dasturlar orqali naqsh ishlash jarayoni yoki rang uyg‘unligini virtual tarzda sinab ko‘rish mumkin. Bu esa amaliy san’at bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Elektron testlar, virtual ekskursiyalar va animatsion darslar yoshlarning muzeyga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, maktab va oliy ta’lim tizimida muzey pedagogikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyatga ega.

Respublikada so‘nggi yillarda xalqning tarixiy, badiiy va madaniy merosini saqlash, kelajak avlodga yetkazish, yosh avlodni umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[6]. Bu borada moddiy-madaniy merosni jahon tajribalari asosida saqlash hamda ularni innovatsion texnologiyalar asosida namoyish qilish, keng ommaga targ‘ib qilish, yosh avlodni milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirish orqali milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega

Xulosa qilib aytganda, muzeylarda amaliy san’at asarlarini zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etish bugungi davrning muhim talablaridan biridir. Multimedia vositalari, virtual ko‘rgazmalar, 3D modellashtirish hamda interaktiv tizimlar eksponatlarning estetik va tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar muzeylarni oddiy ko‘rgazma maskanidan interaktiv madaniy-ma’rifiy markazga aylantirmoqda. Ayniqsa, milliy amaliy san’at namunalarini innovatsion usullarda targ‘ib qilish yosh avlodning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilova J., Muhamedova M. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. – Toshkent: Munis design group, 2013.
2. Kuryazova D. T. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. – Toshkent: San’at, 2010
3. Kuryazova D. T. Muzey ishi asoslari. – Toshkent: Lesson Press, 2019.
4. Bobojonov D. “Ichan qal’a” davlat muzey qo’riqxonasi tarixi (1920–2020-yy.). Birinchi kitob. – Urganch: MILLENIUMUS PRINT, 2024.
5. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Muhamedova M. S. O‘zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan ob’yektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr II yarmi –XXI asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: Lesson Press, 2020.

[5] Bobojonov D. “Ichan qal’a” davlat muzey qo’riqxonasi tarixi (1920–2020-yy.). Birinchi kitob. – Urganch: MILLENIUMUS PRINT, 2024. – B. 118.
[6] Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 29.